XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-023-7-106-K/24 Kattaqo‘rg‘on shahar

Kattaqo‘rg‘on shahrining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Kattaqo‘rg‘on shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 24-dekabrdagi 01/02-38-301-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari shahar Kengashining yettinchi chaqiriq, to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) hamda xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-son qaroriga muvofiq, Kattaqo‘rg‘on shahar mahalliy byudjetining 2025 yilgi daromadlari **93 205.2 mln.so‘m** va xarajatlari esa **93 205.2 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, Kattaqo‘rg‘on shahar mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **845.0 mln.so‘m** etib belgilanganligi hamda shahar mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda shahar mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 1420.0 mln.so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda

oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 3-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i I.Mamatov, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O.Kadirov), shahar soliq inspeksiyasi (F.G‘aniev) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (J.Quldoshev) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i I.Mamatovlar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi G.Alimova

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-106-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Kattaqo‘rg‘on shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**93 205 249**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	8 100 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	39 336 600
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	3 803 000
4	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	13 162 160
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 168 000
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	9 039 489
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 027 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 089 000
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 334 000
10	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	146 000

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-106-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025 yil uchun Kattaqo‘rg‘on shahar mahalliy byudjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**93 205 249**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	20 306 474
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1 023 179
2	Madaniyat bo‘limi	7 177 416
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	3 973 344
4	Sport bo‘limi	5 619 233
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 823 493
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 364 994
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 225 728
8	*Hokimyat*	33 200 828
	shundan:	
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	55 125
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	23 164 939
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	795 000
	Zahira jamg‘armasi	1 420 055
9	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	875 779
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	183 046
	Axborot-kutubxona markazlari	692 733
10	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	16 637 960

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-106-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Kattaqo‘rg‘on shahrida 2025-yil uchun qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/p	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	2025-yil uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Abdulla Qaxxor MFY	59 048 000	1,01	59 638 480
2	Alisher Navoiy MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
3	Amir Temur MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
4	Baland Chordara MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
5	Baxoriston MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
6	G‘arb Machit MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
7	Go‘zalkent MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
8	Damariq MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
9	Do‘stlik MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
10	Yermachit MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
11	Zarafshon MFY	59 048 000	1,16	68 495 680
12	Zarifobod MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
13	Ziyolilar MFY	59 048 000	1,16	68 495 680
14	Zomin MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
15	Islom Shoir MFY	59 048 000	1,01	59 638 480
16	Kattaqo‘rg‘on MFY	59 048 000	1,01	59 638 480
17	Qoriravot MFY	59 048 000	1,16	68 495 680
18	Kunjupay MFY	59 048 000	1,16	68 495 680
19	Ko‘xnadam MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
20	Qo‘shhovuz MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
21	Mehrjon MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
22	Miyonkol MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
23	Navbaxor MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
24	Noqis MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
25	Nurafshon MFY	59 048 000	1,16	68 495 680
26	Nurobod MFY	59 048 000	1,01	59 638 480
27	O.Miriy MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
28	Oq oltin MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
29	Sufi Olloyor MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
30	O‘rikzor MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
31	Usmon Nosir MFY	59 048 000	1,01	59 638 480

32	Haydarchaman MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
33	Chinobod MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
34	Chordara MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
35	Yakkabog‘ MFY	59 048 000	1,08	63 771 840
36	Vatanparvar MFY	59 048 000	1,08	63 771 840

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-106-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Kattaqo‘rg‘on shahrida 2025-yil uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	2025-yil uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Abdulla Qaxxor MFY	489,29	0,86	420,79
2	Alisher Navoiy MFY	489,29	1,06	518,65
3	Amir Temur MFY	489,29	1,27	621,40
4	Baland Chordara MFY	489,29	1,06	518,65
5	Baxoriston MFY	489,29	1,06	518,65
6	G‘arb Machit MFY	489,29	1,27	621,40
7	Go‘zalkent MFY	489,29	1,06	518,65
8	Damariq MFY	489,29	1,06	518,65
9	Do‘stlik MFY	489,29	1,27	621,40
10	Ermachit MFY	489,29	1,06	518,65
11	Zarafshon MFY	489,29	1,06	518,65
12	Zarifobod MFY	489,29	1,06	518,65
13	Ziëlilar MFY	489,29	1,06	518,65
14	Zomin MFY	489,29	1,06	518,65
15	Islom Shoir MFY	489,29	0,86	420,79
16	Kattaqo‘rg‘on MFY	489,29	0,86	420,79
17	Qoriravot MFY	489,29	1,06	518,65
18	Kunjupay MFY	489,29	1,06	518,65
19	Ko‘xnadam MFY	489,29	1,06	518,65
20	Qo‘shhovuz MFY	489,29	1,06	518,65
21	Mehrjon MFY	489,29	1,06	518,65
22	Miënkol MFY	489,29	1,06	518,65
23	Navbaxor MFY	489,29	1,06	518,65
24	Noqis MFY	489,29	1,06	518,65
25	Nurafshon MFY	489,29	1,06	518,65
26	Nurobod MFY	489,29	0,86	420,79
27	O.Miriy MFY	489,29	1,06	518,65
28	Oq oltin MFY	489,29	1,06	518,65
29	Sufi Olloër MFY	489,29	1,06	518,65
30	O‘rikzor MFY	489,29	1,06	518,65
31	Usmon Nosir MFY	489,29	0,86	420,79

32	Haydarchaman MFY	489,29	1,27	621,40
33	Chinobod MFY	489,29	1,06	518,65
34	Chordara MFY	489,29	1,06	518,65
35	Yakkabog‘ MFY	489,29	1,06	518,65
36	Vatanparvar MFY	489,29	1,06	518,65